

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**RO'YXATGA OLINDI**

№ vm – 343 - 5A340612 – 2.01

«1» Iyul **2003** y

**«TASDIQLANDI»**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

---

«8» Iyul **2003** y

**DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»  
ta'lim sohasidagi 5A3406012 - «Kapital qo'yilmalarni  
moliyalashtirish va ularning monitoringa»  
magistratura mutaxassisligi uchun**

**Toshkent-2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Jo'raev A. S,  
k.o'q. Nosirov E. I.

**Taqrizchilar:** dots. Xolmaxmadov Z. A.,  
k. o'q. Sultanov M. A

Bugungi kunda O'zbekistan Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ishlab chiqarish salohiyatini o'stirish orqali iqtisodiyotni yuksaltirishdir. Ishlab chiqarishning o'sishi esa, investitsiya faoliyatini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish, o'z navbatida, davlat investitsiya siyosatiga bog'liq. Shulardan kelib chiqqan holda «Davlat investitsiya siyosati» fanining asosiy maqsadi magistrantlarga davlat investitsiya siyosatining maqsadi, yo'nalishi va istiqbollari o'rgatishdan iboratdir. Bu maqsaddan kelib chiqqan hsttda fanning asosiy vazifasi investitsiya siyosatining mazmuni, investitsiya muhiti, xorijiy investorlarga nisbatan investitsiya siyosatining kelgusidagi yo'nalishi, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etish va masalalar bo'yicha magistratura talabalariga nazariy bilim berish hisoblanadi.

На сегодняшний день основной целью экономических реформ, проводимых в Республике Ўзбекистан, является развитие экономики путем повышения производственного потенциала. Развитие производства требует эффективную организацию инвестиционной деятельности. В свою очередь, организация инвестиционной деятельности связана с государственной инвестиционной политикой. Исходя из этого, основной целью дисциплины «Государственная инвестиционная политика» является обучение магистрантов целям, направлениям и перспективам государственной инвестиционной политики. Исходя из этих целей, основной задачей дисциплины является дать магистрантам теоретические знания относительно содержания инвестиционной политики, инвестиционного климата, перспективам будущей инвестиционной политики для иностранных инвесторов, организации координации инвестиционной деятельности и т.д.

In our days the main purpose of economic reforms is directed to economic development through the growth of productional potential of the country. Development of production requires an effective organization of investment activity. In turn, organization of investment activity is connected with state investment politics. Proceeding from this basic purpose of discipline «Public investment politics» is the study by masters of purposes, tendencies and perspectives of public investment politics. Proceeding, from these purposes the basic task of discipline is the contents of investment politics, the investment climate, future tendencies of investment politics for the foreign investors, organizations of investment activity's coordination and other tasks connected with these directions.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel, 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

Islohotlarning hozirgi bosqichida davlatning investitsiya siyosati o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ishlab chiqarishning rivojlanishi va investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi ham bevosita davlat investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi.

### **Fanning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi**

«Davlat investitsiya siyosati» fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga davlat investitsiya siyosatining mazmuni, maqsadi, yo'nalishi va istiqbollari o'rgatishdan iboratdir. Bu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi investitsiya siyosatining mohiyati va mazmunini, investitsiya muhitini, xorijiy investorlarga nisbatan investitsiya siyosatining kelgusidagi yo'nalishini, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etish va shu yo'nalishdagi ishlarni o'rgatish hisoblanadi.

Mazkur fan «Markazlashtirilgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi», «Investitsion tahlil», «Investitsiya loyihalari monitoringi» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, magistrantlardan ushbu fanlarni chuqur o'zlashtirish talab etiladi.

### **Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar**

Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilimga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda investitsiya va xorijiy investitsiya sohasiga oid qonunchilik, shuningdek, investitsiya siyosatidagi yangiliklardan xabardor bo'lishlari lozim.

«Davlat investitsiya siyosati» fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- zamonaviy davlat investitsiya siyosati to'g'risida bilimlarga ega bo'lish;
- davlat investitsiya siyosatining mazmuni va maqsadini anlashi;
- har yilgi va yaqin istiqbolda davlat investitsiya dasturlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;
- O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni bilish;
- Respublikamizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan investitsiya muhiti va chet el kapitalining kirib kelishi to'g'risida bilimlarga ega bo'lish;
- har yilgi va yaqin istiqbolda davlat investitsiya dasturlarini shakllantirishga tizimli yoyondashuv bo'yicha asosiy tushunchalarini o'zlashtirgan bo'lishi;
- investitsiya dasturini ishlab chiqish mexanizmini mohiyatini tushunishi;
- investitsiya faoliyatini va uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish vositalari to'g'risida bilimlarni egallashi;
- davlat investitsiya dasturlarining bajarilishini tahlil qila olishi;
- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini baholashning son va sifat jihatlarini aniqlay olishi;
- investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish asoslarini bilish.

Magistrantlar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida qay etilganlar bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lishlari, ularni to'la bilishlari, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishlari kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni muvofiqlashtirish maqsadida magistrantlarning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, bilim va ilmga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish zarur. Davlat investitsiya siyosati fanidan olgan bilimlari magistrantlarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda qo'l keladigan adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

### **Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga mini mal talablar**

O'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistr tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadilar.

### **Mashg'uloti hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Fanga jami 120, shu jumladan, 40 - ma'ruza, 40 - amaliy, 40 - muetaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, kssh-sh amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Mark: ularning mustaqil o'rgatish uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashning og'zaki yoki yozma usullari qo'llaniladi.

Talabalar o'zlashtirishini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fan o'qitiladigan har bir semestrda ikki marotaba joriy baholash, ikki marotaba oraliq baholash va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin. Oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

### **Innovatsiy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

Kuyidagilar "Davlat investitsiya siyosati» fanini o'qitishda kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalardan foydalanishning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi:

- o'quv maqsadlari va vazifalari katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini test (nazorat) topshiriqlariga ko'chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd va kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga olgan bilimlarini o'zlari baholashlari uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimni tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h.k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya sohasiga tegishli qonundar, hukumat qarorlari, investitsiya dasturi, nizomlar va investitsiya loyihalarini baholashning YuNIDO uslubiyoti va kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalaridan, tarkatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

### **Ishchi dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Mazkur fan "Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va ularning monitoringa", "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish", "Davlat investitsiyalari", "Xalkaro investitsiyalar", "Davlat moliyasini boshqarish", "Sug'urta ishi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Davlat soliqlari va yig'implari", "Mahalliy soliqlar va yig'implar" utaxassisliklariga birinchi va ikkinchi semestrlarda o'qitilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, investitsiya dasturlari, nizomlar va kompyuter dasturlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

«Davlat investitsiya siyosati» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Magistrantlarning ta'lim jarayonida olgan nazariy bilimlari o'qituvchilar yoki belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting tizimi asosida usulida baholanadi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari**

Fanning predmeti va mazmuni. O'zbekistonniyag iqtisodiy rivojlanishida investitsiya siyosatining o'rni va ahamiyati

«Davlat investitsiya siyosati» fanining predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro bogliqligi. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayoni. O'zbekiston investitsiya siyosatining mazmuni. Investitsiya siyosatining maqsadi. *Bozor sharoitida investitsiya siyosati itisodiy taratstsiyot omili sifatida.*

O'zbekistondagi investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar

Investitsion muhitning mohiyati. O'zbekistondagi investitsion muhit. Investitsion muhitiga ta'sir etuvchi omillar (iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy). *Investitsion muhitini barshchorlashtirish yo'llari.*

O'zbekistonning investitsiya faoliyati va uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish

Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari. Investitsiya faoliyati infratuzilmalari. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish vositalari. *Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari.*

O'zbekiston Respublikasi investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari

O'zbekistonda investitsiya faoliyatni muvofiklashtiruvchi koiuplari va ularga tavsif. *O'zbekistonning investitsiya faoliyatiga tegishli me'yoriy uujatlarning o'zigi xos xususiyagplari.*

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarurati. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlan-tirishdagi o'rni. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida barpo etilgan korxonalar va ularning faoliyati.

*O'zbekistonda portfelli investitsiyalarni jalb etish muammolari. Mamlakat reytingini baodolash tizimi.*

O'zbekiston iqtisodiyotidagi iyavestitsiyalarning tarkibiy tuzilishi

Real aktivlarga qo'yilgan investitsiyalar. Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar. Investitsiyalarning tarmoq tuzilishi. Qimmatli qog'ozlarga qaratilgan investitsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bozori. *Investitsiya fondlari.*

O'zbekiston investitsiya siyosatining boshqa davlatlar investitsiya siyosatlaridan farqli xususiyatlari

O'zbekistonning halqaro integratsiyalashuvida investitsiya siyosatining o'rni. O'zbekiston investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. *Investitsiya uamkorligi shartnomalari.*

### **3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI**

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida investitsiya siyosatining o'rni va ahamiyati  
O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning mohiyati va yo'nalishi. O'zbekiston investitsiya siyosatining mazmuni. Investitsiya siyosatining maqsadi. Bozor sharoitida investitsiya siyosati iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida.

O'zbekistondagi investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar  
Investitsiya muhitining mohiyati. O'zbekistonning investitsion muhiti. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiya muhitini barqarorlashtirish yo'llari.

O'zbekistonning investitsiya faoliyati va uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish  
Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari. Investitsiya faoliyati infratuzilmalari. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari  
O'zbekistonning investitsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlariga tavsif.  
O'zbekistonning investitsiya faoliyatiga tegishli me'yoriy hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning investitsiya dasturi va uning o'ziga xos jihatlari.  
Hududlarning investitsiya dasturi.

#### **O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish**

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarurati va ularning iqtisodiyotni yuksalishdagi o'rni. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida barpo etilgan korxonalar faoliyati. O'zbekistonda portfelli investitsiyalarni jalb etishi muammolari. Mamlakat reytingini baholash tizimi.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi investitsiyalarning tarkibiy tuzilishi  
Real aktivlarga qo'yilgan investitsiyalar. Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar. Investitsiyalarning tarmoq tuzilishi. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalar.

O'zbekiston investitsiya siyosatining boshqa davlatlar investitsiya siyosatlaridan farqli xususiyatlari

O'zbekistonning halqaro integratsiyalashuvida investitsiya siyosatining o'rni.  
O'zbekistonning investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Investitsiya hamkorligi shartnomalari.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR VO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, UQUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RUYXATI**

Barcha mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim anik masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

"Davlat investitsiya siyosati" fanini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida investitsiya siyosatining asosiy yunalishlarini o'rganish bo'yicha chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga "Davlat investitsiya siyosati" fanini o'rganishda g'yorli axborot vositalaridan. internet tizimidagi quyi.chagi saiT] va elektron pochtalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

<http://www.bankofamerica.com/investments>

<http://energytrends.pnl.gov>

<http://www.frtib.gov>

<http://www.worldbank.org/icsid>

<http://www.ici.org>

<http://invest-faq.com>

<http://www.oakinv.com>

<http://www.hondurasinfo.hn>

<http://farmbill.farmbill.unl.edu>

<http://www.eagleinvsys.com>

<http://www.Apexvc.com>

<http://www.wisebuy.co.uk>

<http://subscribe.ru>

<http://www.bimk.kiev.ua>

<http://tininfo.bigural.ru>

<http://www.bashkortostan.ru>

<http://vuirute.iessl.ru>

<http://tut.by>

<http://www.zelenograd2001.narod.ru>

<http://econsultant.ru>

<http://megapolis.kharkov.ua>

<http://www.rada.kiev.ua>

<http://alyona.nns.ru>

<http://www.hse.ru>

<http://www.samara.ru>

<http://www.vestona.ru>

<http://www.officemart.ru>

<http://www.chtivo.ru>

<http://bdg.preess.net.by>

Shuningdek, respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallar ma'lumotlardan foydalanishlari, xorijiy

investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi va boshqa vazirlik hamda idoralarning amaliy materiallaridan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

## 5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Magistrantlarning o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi: joriy, oraliq va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turlariga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foizi miqdorida belgilangan.

"Davlat investitsiya siyosati" fanidan magistrant to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 80 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 28 ball, oraliq baholashga 28, yakuniy baholashga esa 24 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida ko'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.

- 86 - 100 foizgacha (68,8 balldan 80 ballgacha) "a'lo";
- 71 - 85 foizgacha (56,8 balldan 68,7 ballgacha) "yaxshi";
- 55 - 70 foizgacha (44 balldan 56,7 ballgacha) "qoniqarli";
- 55 foizdan kam (0 dan 43,9 ballgacha) "qoniqarsiz".



## 6. ADAVIYO TLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 1998 Y. 24 dekabr. Xalq so'zi, 1999Y. 12 yanvar. O'zbekistan Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi Qonuni, 1998. 30 aprel. Xalq so'zi, 1999Y. 12 yanvar. O'zbekistan Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» gi Qonuni. 1998Y. 30 aprel. Soliq va bojxona xabarlari, 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami». //Narodnoe slovo, 1998Y. 9 fevralya. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O dopolnitelnix stimulax i lgotax, predostavlyaemix predpriyatiam s inostrannimi investitsiyami». //Narodnoe slovo, 1998. 27 marta.
3. Protokol zasedaniya komissii po reformirovaniyu ekonomicheskoy, finansovoy i pankovskoy sfer, razvitiyu i ukrepleniyu rinochnix printsipov i mexanizmov mejvedomstvennogo koordinatsionnogo soveta po reformirovaniyu i investitsiyam pri Prezidenta Respubliki O'zbekistan. //Narodnoe slovo, 2001g. 21 iyulya.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning Vazirlar Mahamasi yig'ilishida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2002 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2003 yil, 18 fevral.
5. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. — T.: Moliya, 2000. -P. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya
6. Angelidi M.S., Karimov N.G. investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie -T.: TMI, 2000.
7. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiy: Uchebno-prakticheskoe posobie. - 3-e izd., pererab. i dop. - M.: Delo i Servis, 2001.
8. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy, t.1, t.2. Pod. red. N.Bruka (Vsemirniy
9. Bank Rekonstruksii i Razvitiya) Institut ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995.
10. Bogatin Yu. V., Shvandar V. A. Otsenka effektivnosti biznesa i investitsiy. - M.: Yuniti, 1999.
11. G'ozibekov D. G., Angelidi M. S, Karimov N.G. Finansovoe obespechenie investitsiy v ekonomiku O'zbekistana - T.: TMI, 1995.
12. G'ozibekov D. G., Sobirov O. Sh. Lizing i ego razvitie v O'zbekistane -T.: Moliya, 2001.
13. Igoshin N. V. Investitsii - M.: YuNITI, 1999. Kovalev V. V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 2000.
14. Radionova S. P., Radionov N. V. Otsenka investitsionnix resursov predpriyatiy - M.: Alfa, 2001.
15. Karp M. V., Shabalin E. M., Eriashvili N.D., Istomin O.B. Lizing, ego ekonomicheskie i pravovie osnovi. - M.: -Dana, 2001.
16. Kostyunina G. M., Liventsev N. N. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. - M.: Ankil, 2001.
17. Sergeev I. V. Veretennikova N. I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2000.
18. Endovitskiy D.A. Kompleksniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001. Qo'shimcha adabiyotlar
19. Leshchenko M. I. Osnovi lizinga. Ucheb. posobie - M.: Finansi i statistika, 2000.
20. Gusakov B. I. Ekonomicheskaya effektivnost investitsionnoy sobstvennosti. - M.: Finansi, 1998.
21. Sergeev A. A. Ekonomicheskie osnovi biznes planirovaniya. - M.: Yuniti-Dana, 1999.

22. Lojnikov A. V. Investitsionnyy analiz i kontrol investitsionnoy deyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.
23. Margolin A. M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.
24. Moskvina V. A. Kreditovanie investitsionnix proektov. - M.: Finansi i statistika, 2001.